



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 3/2

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 3/2



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Камола Саипова</b> ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПОТряСЕНИЯ 1917 ГОДА И ИЗМЕНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА.....	5
<b>2. Аваз Ерметов</b> ЎЗБЕКИСТОН ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ СОВЕТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ТУТГАН ЎРНИ ВА ФАОЛИЯТИДАГИ ХУСУСИЯТЛАР (XX АСРНИНГ 20-30 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА).....	15
<b>3. Raximjon Xasanov</b> YOSHLAR MA'NAVİYATI VA MILLIY TARBIYA.....	22
<b>4. Alibek Bengmatov</b> XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA JANUBIY O'ZBEKISTONDA SPORT KADRLARINI TAYYORLASH: SIYOSIY, IJTIMOIIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI.....	27
<b>5. Ahmad Ergashev</b> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI: FUTBOL INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYALASHDA HUQUQIY ISLOHOTLARNING O'RNI.....	36
<b>6. Baxtiyor Nazirov</b> SURXON VOHASIDA XALQ MILLIY O'YINLARI GENEZISI VA TARIXIY-ETNOLOGIK TAVSIFI.....	45
<b>7. Axmedjon Yusupov, Mohira Abdullayeva</b> O'RTA OSIYO KO'CHMANCHI XALQLARI HARBIY BOSHQARUVIDA QUROL YAROG'LARNING O'RNI (ILK SAK-MASSAGETLAR MISOLIDA).....	54
<b>8. Абдухолик Мингнарoв</b> XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ВА ЖАДИДЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ МИЛЛИЙ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ.....	60
<b>9. Людмила Соколова</b> ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫШИВКИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ УЗБЕКИСТАНА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ.....	67
<b>10. Baxtiyor Xalmuratov</b> O'ZBEK XALQINING ORNITOLOGIK QARASHLARI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TAHLIL.....	72
<b>11. Jamshid Peremkulov</b> XIX-ASR IKKINCHI YARMIDA TOSHKENT SHAHRI MAHALLALARI TARIXI.....	78
<b>12 Anvarjon Erqo'ziyev</b> XIV – XIX ASRLARDA O'RTA OSIYONING XALQARO SAVDODAGI ISHTIROKI.....	86



**Raximjon Inamovich Xasanov,**  
EMU University katta o'qituvchisi

## YOSHLAR MA'NAVIYATI VA MILLIY TARBIYA

**For citation:** Rakhimjon Khasanov. YOUTH SPIRITUALITY AND NATIONAL EDUCATION. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19845460>

### ANNOTATSIYA

Maqolada milliy tarbiya va yoshlar manaviyatining shakllanishida ajdodlar ma'naviy-madaniy merosining o'рни haqida so'z boradi. Unda O'zbekistonda milliy qadriyatlarni tiklash borasida olib borilayotgan davlat siyosati, yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirish usullari, bu borada milliy va islom qadriyatlarining o'рни, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashishda oilaning roli kabi masalalar tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, yoshlar, tarbiya, meros, qadriyat, tarix, milliy g'oya, demokratiya.

---

**Хасанов Рахимжан Инамович,**  
EMU University, старший преподаватель

## ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ И НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль духовного и культурного наследия предков в формировании национального воспитания и духовности молодежи. Анализируются государственная политика Узбекистана по восстановлению национальных ценностей, методы повышения духовной культуры молодежи, роль национальных и исламских ценностей в этом контексте, а также роль семьи в борьбе с духовными угрозами.

**Ключевые слова:** духовность, молодежь, образование, наследие, ценности, история, национальная идея, демократия.

---

**Rakhimjon I. Khasanov,**  
EMU University, Senior Lecturer

## YOUTH SPIRITUALITY AND NATIONAL EDUCATION

### ABSTRACT

The article discusses the role of the spiritual and cultural heritage of ancestors in the formation of national education and youth spirituality. It analyzes issues such as the state policy being carried out in Uzbekistan to restore national values, methods of improving the spiritual

culture of youth, the role of national and Islamic values in this regard, and the role of the family in combating spiritual threats.

**Index Terms:** spirituality, youth, education, heritage, value, history, national idea, democracy.

### 1. Dolzarbliigi:

Jamiyat hayot ko'rinishini universal shakli bo'lsa, oila uning yacheykasidir. Oila umumiy, maxsus va ijtimoiy qonunlarga muvofiq rivojlanadi, shu bilan birga u jamiyatning barcha qarama-qarshililarini o'zida aks ettiruvchi, ayni chog'da o'z ichki ziddiyatlari, tabiiy ichki taraqqiyot manbalariga ham ega bo'lgan nisbatan mustaqil ijtimoiy institutdir. Jamiyatda va oilada yuz beradigan o'zgarishlar o'zaro bir-biriga bog'liq. Bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ruhiy o'zgarishlar yoshlarda oila va oilaviy munosabatlarga nisbatan yaxshi ijobiy munosabatlar shakllanish uchun zarur imkoniyatlarni yaratdi. Shu sababli oila nafaqat aholi sonini to'ldirish vazifasini bajaribgina qolmay, shaxsning o'z-o'zini namoyon etuvchi, ijtimoiy ahamiyatga molik fazilat va xislatlarni egallash, ijtimoiy madaniyatni shakllantirish uchun qulay muhit hisoblanadi.

Oilada, maktabda, mehnat jamoasida, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya jamoatchilik fikrining kuchi, ommaviy axborot vositalari, ruhoniylarning obro'-e'tibori hamma-hammasi odamlarimizda qonun buzilishi bilan bog'liq har qanday hatti-harakatlarga nisbatan barqaror qarshilikni shakllantirishga qaratilmog'i lozim.

Respublikada 1998-yil "Oila yili" deb e'lon qilinishi, barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining oilaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga jalb etdi. 1998-yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan "Oila" Respublika ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

### 2. Metodlar:

Milliy tarbiya va yoshlar ma'naviy kamolotida qadriyatlarining ahamiyatini o'rganish yuzasidan olimlar bir qator tadqiqotlar olib borganlar. Xususan, D.O.Ortiqova, I.R.Xo'jamurodov, I.E.Xudoyberdiyev, M.Mamatov, G'.S.Qaramatov, F.A.Primova, Z.E.Markayev, T.K.Komilova, M.T.Tojiboyev, N.M.Musayeva, A.A.Qambarov, Y.M.Yaqubov, M.A.Karimova va boshqalar.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayoni ketayotgan hozirgi kunda milliy tarbiya va yoshlar manaviyatining bu borada tutgan o'rnini ilmiy tahlil qilishni ko'zda tutadi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ajdodlarimiz ma'naviy-madaniy merosini, xususan, milliy qadriyatlarini tiklash borasida davlat siyosatining tahlili; ajdodlar merosini tiklashda milliy qadriyatlarga munosabatning o'ziga xosligi; yoshlar ma'naviyati shakllanishida milliy qadriyatlar ta'siri; yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirish usullari, milliy va islom qadriyatlarini o'rni; ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashishda milliy tarbiya, oila muhim omilligini vorisiylik, tarixiylik va mantiqiylik asosida ilmiy asoslash dolzarb hisoblanadi.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Oila yoshlarga huquqiy tarbiya berish va ta'lim tizimining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Oiladagi muhit farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi, o'zaro munosabat, shakllangan tarbiya tizimi bolalarda huquqqa bo'lgan dastlabki qarashlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Oilada muhit o'zaro hurmat, oliyjanoblik, halollik asosiga qurilgan bo'lsa, oila boshliqlari o'z vazifalariga sidqidildan qarasarlar jamiyatning bunday yacheykasidan yaxshi fuqarolar yetishib chiqadi. Abu Ali ibn Sino aytganidek: "oilada yomon tarbiya faqat shu oilaning o'zigagina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki atrofdagi boshqa oilalarga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin" [1].

Ta'lim-tarbiya barcha davrlarda ham insoniyat oldida hal etilishi zarur bo'lgan eng muhim dolzarb vazifa bo'lib turgan. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, urf-odatlar va an'analar asosida tashkil qilingan. Ya'ni, ta'lim-tarbiyaga doir shakllangan urf-odatlarimiz, boqiy an'analarimiz ko'p. Bugungi kunda ham ulardan yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mamlakat istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak [2].

Bilimlar va axborot hajmining ko‘payishi odamlar dunyoqarashining kengayishi va ma‘naviyatining yuksalishiga turtki bo‘lishi shubhasiz. Ayni paytda, tinimsiz va tizimsiz kelayotgan xabarlar ichidan haqqoniy, obyektiv va foydali ma‘lumotlarni ajrata olish qobiliyatini shakllantirish juda muhim vazifa bo‘lib boradi.

Respublikada ta‘lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo‘naltirilgan. Zero, ushbu masala g‘oyaviy nuqtai nazardan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta‘lim to‘g‘risida’gi Qonun prinsiplariga to‘la muvofiq keladi. Ta‘lim-tarbiyaning milliy modeliga ko‘ra, ta‘lim tizimini yangilash – tabiiy ravishda milliy merosimizni o‘rganish va uni pedagogik tafakkur iste‘moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Milliy merosning g‘oyaviy negizi – shaxs tarbiyasi, uning ma‘naviy ehtiyojlariga da‘vogar bo‘lgan omillarni o‘rganishdan iborat bo‘lib kelgan, ushbu muammo hozirda ham jamiyatda olib borilayotgan siyosatda eng muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ta‘lim jarayoni dunyo bo‘yicha turli mamlakatlarning yaqinlashuvi, tom ma‘noda global, insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri uchun hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida yuzaga kelgan umumiy va milliy o‘ziga xosliklar alohida ahamiyatga ega.

Ta‘limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog‘liq. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o‘zgartiradi. O‘sib kelayotgan yosh avlod uchun ta‘lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo‘yadi.

Ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o‘z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ta‘lim samaradorligi o‘quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan holda yangi o‘qitish uslublari, shakllari ta‘lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelidan bosh muddao qilib, komil inson va yetuk malakali mutaxassisni tayyorlashni qo‘yilishida ham yuqoridagi masalalar bilan mantiqiy aloqadorlik mavjud. Zero, kadrlar tayyorlash milliy modeli, faqat ta‘lim-tarbiyadagina iborat emas, balki bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina hayot bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Milliy model, bu – shaxs, jamiyat va davlat, uzluksiz ta‘lim, fan, ishlab chiqarishning uzviy birligi va hamkorligi, ularning o‘zaro bir-biriga aloqasini aks ettiradi.

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt, ta‘lim sohasidagi xizmatlarning iste‘molchisi hamda ularni amalga oshiruvchisidir [3]. Shuning uchun ham bizning ajdodlarimiz ta‘lim-tarbiya masalasida inson shaxsi uning xususiyatlarini hisobga olib ish ko‘rganlar. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy yozganidek, ta‘lim-tarbiya ishini boshlashdan avval tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xislatlarini o‘rganish lozim [4].

Shuni alohida ta‘kidlash kerak-ki, milliy ta‘lim-tarbiya modeli konsepsiyasining mazmuni milliy turmush tarzi va ma‘naviy-axloqiy an‘analari bilan bog‘liqdir. Shu boisdan ham respublikamiz jamiyatshunos olimlari faylasuflar, ta‘lim-tarbiya tizimida milliy modelining asosiy xususiyatlarini tahlil etayotganda ko‘proq uning milliy tarbiyadagi o‘rni hamda ahamiyatini ochib berishga harakat qilishmoqda. Jumladan, taniqli faylasuf, akademik E.Y.Yusupovning fikricha, milliy tarbiyaning bu xususiyatlari zamonaviy ta‘lim tizimi bilan uyg‘unlasha olishi bilan bir qatorda milliy an‘analimiz, qadriyatlarimiz bilan bog‘lansagina ijobiy samara beradi [5].

Ma‘lumki, milliy ta‘lim-tarbiya modelning bosh maqsadi komil insonni tarbiyalashdir. Ushbu masalada ham respublika olimlari o‘ziga xos konsepsiyalarni ilgari surdilar [6]. Ma‘naviy barkamol inson aql-idrok asosida harakat qiladi. Vataniga, xalqi va millatiga sodiq bo‘lish ham madaniyatlilik, ma‘naviylik, barkamollik, axloqiy poklik belgilaridan hisoblanadi. Rostgo‘ylik, hayoli bo‘lish kabi eng ulug‘ fazilatlar birlashsagina, u komil inson bo‘lib yetishadi [7].

Yuqori malakali mutaxassis olim, me‘mor, san‘atkor, harbiy xodim bo‘lish barkamollikni anglatmaydi, inson kamolotga yetish uchun zarur hayot maktabini o‘tashi, iymon-e‘tiqod yo‘liga

kirish talab etiladi [8]. Komillikning shakllantirishda ko‘proq o‘zimizga mos sharqona madaniy-ma‘naviy an‘analar, uning o‘ziga xosligi, afzalliklariga oid adabiyotlarni chop etish, targ‘ib qilish maqsadga muvofiqdir.

Insonning butun umri o‘tadigan mahallaning xususiyati shundaki, unda yashovchi har bir oila, shaxs shu ahli jamoa ko‘z o‘ngida shakllanadi. Mahalla yoshlari tarbiyasi mahalla faoliyati yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Aholiga eng yaqin bo‘lgan hokimiyat bo‘g‘ini bo‘lgan mahalla yoshlar o‘rtasida katta tarbiya o‘chog‘i, ma‘naviyat va ma‘rifat markazi bo‘lmog‘i lozim.

Yoshlarda axloqiy madaniyatni oshirishda oilaning, mahallaning, ommaviy axborot vositalarining, davlat va nodavlat jamoat tashkilotlarining o‘rni beqiyosdir. Demak, axloqiy madaniyatni shakllantirishda milliy g‘oya ruhida sug‘orilgan yoshlar bugungi va ertangi porloq kelajakning asosini tashkil qilishi shubhasizdir.

Mafkuraviy kurashlar kuchaygan bugungi kunda yoshlar qalbida ona-Vatanga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o‘lmas ruhi bo‘lgan ona tiliga, ota-bobolardan meros muqaddas dinga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Yoshlar ma‘naviyatining yuksalishida va ularni milliy ruhda tarbiyalashda milliy g‘oya muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lida dadil borayotgan O‘zbekiston respublikasida ham milliy g‘oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega. Milliy g‘oya ezgulikka tayanar ekan, buzg‘unchi mafkuraga qarshi kurashishda aniq maqsadga qaratilgan targ‘ibot ishlarini tashkil etish masalasi dolzarblashib boraveradi.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida kurashda maktabning o‘rni alohida. Shu bois, bugun yurtimizda ta‘lim-tarbiya sohasida keng ko‘lamli islohotlar kechayotgani bejiz emas. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi asosida O‘zbekiston taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘yib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi islohotlar buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda.

Ma‘rifatparvar jadid bobolarimizning “Najot – ta‘limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”, degan so‘zlarida teran ma‘no mujassam. Zero, har qanday davlat taraqqiyotining ta‘mal toshi bevosita ta‘lim masalalariga qaratilayotgan e‘tibor bilan bog‘liq.

**4. Xulosa** qilib aytganda, tarixan bolaning ta‘lim-tarbiyasiga juda nozik va jiddiy masala sifatida alohida e‘tibor qaratilgan. Bu orqali yurtning kelajakdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy taraqqiyotiga zamin yaratilgan. Prezident Sh.Mirziyoyev Sharq donishmandlarining “Eng katta boylik bu – aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu – bilimsizlikdir!”, degan hikmatli so‘zlarini keltirib, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma‘rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanib borayotganini, nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a‘zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma‘rifat, yuksak ma‘naviyat kerakligini, ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish holatlari kuzatilishini ta‘kidlaganida yuz karra haq edi.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashda mamlakat milliy g‘oyasi har birimizga kelajakka ishonch, madad, kuch-g‘ayrat, shijoat berib, yoshlarimizni, xalqimiz va millatimizni ulug‘vor va bunyodkor ishlarga, Vatan, millat, mustaqillik himoyasi yo‘lida birlashishga safarbar etadi.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Irisov A. Ibn Sinoning falsafiy risolalari. Toshkent, O‘zbekiston. 1963 yil 20-b. (Irisov A. Ibn Sina's philosophical treatises. Tashkent, Uzbekistan. 1963, p. 20.)
2. Muloqot jurnali, 1999 yil. № 4. 21-bet. (Journal Muloqot, 1999, No. 4, p. 21.)
3. Barkamol avlod orzusi. - T.: “Sharq” nashriyoti matbaa konserni. 1999 yil, -B. 144. (The dream of a harmonious generation. - T.: “Sharq” publishing house printing concern. 1999, -P. 144.)
4. Nosirov Komiljon. Ajdodlar sabog‘i. Jamiyat va boshqaruv, 1999 yil, №1-2. -B. 45. (Nosirov Komiljon. Lesson of the ancestors. Jamiyat va boshkaruv, 1999, No. 1-2. -P. 45.)

5. Yusupov Erkin, Yusupov O'tkir. Oila – ma'naviyat bulog'i. Toshkent, 2003, 18-bet. (Yusupov Erkin, Yusupov O'tkir. Family - a source of spirituality. - Tashkent, 2003, p. 18.)
6. Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. Oliy o'quv yurtlari uchun. - T., "O'qituvchi", 1997, 294-bet. (Tulenov J., Gofurov Z. Philosophy. For higher educational institutions. - T., "Ukituvchi", 1997, p. 294.)
7. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T., "Fan", 1994, 72-bet. (Mahkamov U. Moral lessons. - T., "Fan", 1994, p. 72.)
8. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T., "O'zbekiston", 2000, 174-bet. (Kholmatova M. Culture of family relations and upbringing of a healthy generation. – T., "Uzbekistan", 2000, - p. 174.)

# ЎТМИШГА НАЗАР

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

### Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqolalar o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 5 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola (IMRAD) 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 5 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новый текст начинается со следующей строки, и статья состоит из (IMRAD) 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиата. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должны быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 5 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists (IMRAD) of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].